

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-
QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.26/26.01.2023.T.109.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

SAPAROV AMANBAY BERDIBAYEVICH

**SUG‘ORISH KANALLARINING EKSPLOATATSION REJIMINI
INOBATGA OLGAN HOLDA SUV TAQSIMLASHNI BOSHQARISH
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Anasay magistral kanali misolida)**

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Saparov Amanbay Berdibayevich

Sug'orish kanallarining ekspluatatsion rejimini inobatga olgan holda
suv taqsimlashni boshqarish usullarini takomillashtirish (Anasay
magistral kanali misolida) 3

Сапаров Аманбай Бердибаевич

Совершенствование методов управления водораспределения
с учётом эксплуатационных режимов оросительных каналов
(На примере магистрального канала Анасай)..... 21

Saparov Amanbay Berdibayevich

Improvement of water distribution management methods considering
the operational regimes of irrigation canals (using the example
of the Anasay Main Canal) 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-
QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.26/26.01.2023.T.109.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

SAPAROV AMANBAY BERDIBAYEVICH

**SUG‘ORISH KANALLARINING EKSPLUATATSION REJIMINI
INOBATGA OLGAN HOLDA SUV TAQSIMLASHNI BOSHQARISH
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Anasay magistral kanali misolida)**

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan № B2025.2.PHD/T4992 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdaqu.edu.uz) va «ZiyoNet» (www.ziynet.uz) Axborot ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djumanazarova Altingul Tengelovna
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Eshev Sobir Samadovich
texnika fanlari doktori, professor

Yangiyev Asror Abdixamidovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.26/26.01.2023.T.109.03 raqamli ilmiy Kengashning «_____» _____ 2025 yil soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140147, Samarqand shahar, Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel.: (+99866) 237-15-93, faks: (+99866) 237-26-30, e-mail: samdaqu@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140147, Samarqand shahar, Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel.: (+99866) 237-15-93, faks: (+99866) 237-26-30, e-mail: samdaqu@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «_____» _____ dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.R. Bazarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

B.M. Norqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, (PhD) dotsent

Q. Mamasoliyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, f-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun magistral kanallarning suv taqsimoti va ekspluatatsion rejimini takomillashtirish, barqaror va iqtisodiy jihatdan samarali irrigatsiya kanallarini qurish hamda rekonstruksiya qilish masalalari yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Jahon miqyosida sug'orma dehqonchilikni ta'minlash uchun gidrotexnik tizimlar, shu jumladan, magistral va xo'jaliklararo kanallar barpo etilgan bo'lib, magistral kanallar va sug'orish tizimlarining suv taqsimoti hamda ekspluatatsion ishonchliligini boshqarish usullarini takomillashtirishga qaratilgan maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida suv ta'minoti inshootlarini qurish va qayta ta'mirlash bo'yicha shoshilinch chora-tadbirlar ko'rish, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslari va elektr energiyasidan foydalanishni avtomatlashtirilgan tarzda nazorat qilishni yo'lga qo'yish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali suv isrofgarchiligini kamaytirish va sug'orish kanallarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish, shuningdek, sug'oriladigan yer maydonlarini suv bilan ishonchli ta'minlash maqsadida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda foydalanuvchilarni zarur suv resurslari bilan ta'minlash muammolari dolzarb bo'lib turibdi. Magistral va xo'jaliklararo kanallarni suv resurslari bilan ta'minlashni optimal boshqarish, ishlab chiqilgan sifat mezonlari asosida aholining suvdan foydalanishini kafolatlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan, chunki «Jahon resurslari instituti bashjratiga ko'ra, 2040-yilga kelib O'zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo'lgan 33 ta davlat qatoriga kiradi...»¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda magistral kanallarda suv taqsimotini optimal boshqarish masalalarini yechish uchun hisoblash algoritmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 2019-yil 9-oktyabrdagi PQ-4486-sonli «Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 5-dekabrdagi PQ-4912-sonli «Qoraqalpog'iston Respublikasida suv resurslaridan samarali foydalanish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ma'lum darajada amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi»ni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni

rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Magistral va sug'orish kanallaridagi muallaq oqizqlar harakati, deformatsion va o'zan jarayonlarini boshqarish hamda ekspluatatsiya rejimlarini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy ilmiy tadqiqotlar bilan ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar shug'ullanib kelishgan: R.G.Kennedy, G.Lacey, V.T.Chow, W.H.Graf, H.Shen, X.Zhang, R.H.Jackson, Ya.V.Bochkarev, M.F.Natalchuk, A.V.Bocharin, P.I.Kovalenko, E.E.Makovskiy, V.I.Olgarenko, V.N.Shedrin, A.A.Tkachev, S.X.Abalyans, I.I.Levi, M.A.Velikanov, V.N.Goncharov, Ye.A.Zamarin, A.G.Xachatryan, I.K.Nikitin, V.M.Makkaveev, A.N.Gostunskiy, N.A.Rjanitsin, G.V.Jeleznyakov, K.V.Grishanin, K.I.Rossinskiy, S.Ye.Mirxulava, Yu.A.Ibad-zade, X.Sh.Shapiro, B.S.Lapshenkov, V.S.Altunin, A.M.Muxamedov, X.A.Ismagilov, S.D.Djamankarayev, I.A.Buzunov, D.R.Bazarov, A.M.Arifjanov, S.S.Eshev, A.M.Fatxullayev, O.Ya.Glovatskiy, A.T.Djumanazarova, L.N.Samiyev va boshqalar tomonidan ijobiy natijalarga erishilgan.

M.A.Velikanov, I.F.Karasev, A.V.Karaushev, A.M.Muxamedov, I.A.Buzunov, D.R.Bazarov, K.I.Baymanov, B.E.Norqulovlar tomonidan ochiq o'zanlarda muallaq oqizqlar harakati va ularning cho'kish dinamikasini hisoblash va nazariy usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Hozirgi kunda global iqlim o'zgarishi va so'nggi yillardagi suv tanqisligi sug'orish kanallari manbalarining gidrologik rejimi dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, buning natijasida, kanallar toraytirilgan holda rekonstruksiya qilinmoqda, bu esa ularning gidravlik parametrlarini o'zgartirishga olib kelmoqda, respublikadagi sug'orish kanallarining mazkur muammolari va o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lishiga qaramay, sug'orish kanallarining ekspluatatsiya rejimlarini inobatga olgan holda suv taqsimlashni takomillashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hali yetarli darajada chuqur o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Suv tanqisligi sharoitida sug'orish kanallarining ekspluatatsion rejimlarini hisobga olgan holda suv taqsimotini boshqarish usullarini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

sug'orish tizimidagi magistral kanallarning ekspluatatsion rejimini boshqarish va oshirish bo'yicha mavjud tadqiqot usullari tahlili va sharxi;

Anasay magistral kanalining gidrologik rejimi dinamikasining o'zgarishi va eksperiment uchastkalarida (stvorlarida) o'zan shakllanishini natura va eksperimental tadqiq etish;

sug'oriladigan maydonlarning suv yo'qotilishini hisobga olgan holda sug'orish kanallarining gidravlik parametrlarini hisoblash usulini ishlab chiqish;

kam suvli davrlarda sug'orish kanallari uzunligi bo'yicha oqizqlar va deformatsion jarayonlarning taqsimlanishini hisoblash usulini ishlab chiqish;

sugʻorish kanallari ish rejimini va choʻkindilarning fraksion tarkibini inobatga olgan holda suv taqsimlashni samarali boshqarish usullarini takomillashtirish;

Tadqiqot obyekti sifatida Anasay magistral kanalining ekspluatatsion va gidravlik rejimini boshqarish jarayonlari olingan.

Tadqiqot predmeti sugʻorish kanallarida suv taqsimlashni boshqarish usullari, suv oqimining loyqaligi, deformatsion va oʻzan jarayonlari, gidrodinamikaning asosiy tenglamalari va zamonaviy GAT texnologiyalari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarni olib borishda eksperimental, dala kuzatuvlari usullari hamda gidravlikada qabul qilingan usullar, gidrodinamika qonunlari asosida matematik modellar tuzish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sugʻoriladigan maydonlarning suv yoʻqotilishini hisobga olgan holda sugʻorish kanallarining gidravlik parametrlarini hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

kam suvli davrlarda sugʻorish kanallari uzunligi boʻyicha oqiziqlar va deformatsion jarayonlarning taqsimlanishini hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

sugʻorish kanallari ish rejimi va choʻkindilarning fraksion tarkibini hisobga olgan holda suv taqsimlashni samarali boshqarish usuli takomillashtirilgan.

magistral kanalning kengaygan va chuqurlashgan qismlarida loyqalikning suv oqimi boʻyicha taqsimlanishini gidrodinamik tenglamalar asosida hisoblash usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bosh suv taqsimlash inshooti zatvorlarini manyovrlash natijasida sugʻorish kanalining ishonchli ish rejimini taʼminlovchi gidravlik koʻrsatkichlar olindi. Natijada ushbu suv taqsimlash usuli bilan sugʻorish kanalining foydali ish koeffitsiyentini 7-12% ga oshirishga erishilgan.

gidrodinamik tenglamalar asosida Anasay magistral kanali oʻzani uzunligi boʻyicha choʻkindilar choʻkish dinamikasini aniqlash usullari ishlab chiqilgan. Natijada suv isteʼmolchilarga kafolatlangan suv taʼminotini 12 foizga oshirish imkonini bergan.

gidrologik rejim taʼsirini hisobga olgan holda Anasay magistral kanalining gidravlik parametrlari ishlab chiqilgan.

magistral kanalda suv isteʼmolining oʻzgaruvchanligini inobatga olgan holda sugʻoriladigan maydonlar va sugʻorish tarmoqlaridan suv yoʻqotilishini aniqlash usuli takomillashtirilgan.

suv balansi tenglamalari asosida sugʻoriladigan maydonlardagi ekin turlari va suv oqimidagi choʻkindilarning fraksion tarkibini hisobga olgan holda dinamik, barqaror va iqtisodiy samarali tindirgichning gidravlik parametrlarini hisoblash usuli takomillashtirilgan.

sugʻorish kanallarida suv resurslarini boshqarishda ekspluatatsion rejimni yaxshilash geoaxborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy yechimlarni ishlab chiqishda umum qabul qilingan gidrodinamik qonunlar va sinovdan oʻtgan matematik usullarga asoslanganligi, olingan nazariy natijalarning eksperimental va amaliy tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslanganligi,

shuningdek, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar natijalarining tekshirilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug'orish kanallari suv oqimining ish rejimi va cho'kindilarning fraksion tarkibini hisobga olgan holda suv taqsimlashni samarali boshqarish usuli hamda Anasay magistral kanali o'zani uzunligi bo'yicha cho'kindilarning cho'kish dinamikasini gidrodinamik tenglamalar asosida aniqlash usuli takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati magistral kanalning kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan qismlarida loyqalikning suv oqimi bo'ylab taqsimlanishini hisobga olgan holda dinamik, barqaror va iqtisodiy jihatdan samarali tindirgichning gidravlik joylashuv parametrlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug'orish kanallarining ekspluatatsion rejimini inobatga olgan holda suv taqsimlashni boshqarish usullarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sug'oriladigan maydonlarning suv yo'qotilishlarini inobatga olgan holda sug'orish kanallarining gidravlik parametrlarini hisoblash usuli «Amudaryo» havzaviy suv xo'jaligi birlashmasi Quyi daryo boshqarmasiga joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 03/09-3-363-son ma'lumotnomasi). Natijada suv taqsimlashda sug'orish kanallarining foydali ish koeffitsiyentini 7-12% ga oshirishga erishildi.

kam suvli davrlarda sug'orish kanallarining uzunligi bo'yicha cho'kindilar taqsimlanishi va deformatsion jarayonlarni hisoblash metodikasi «Amudaryo» xavzaviy suv xo'jaligi birlashmasi Quyi daryo boshqarmasiga joriy etilgan. (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 03/09-3-363-son ma'lumotnomasi). Natijada suv iste'molchilarini kafolatli suv bilan ta'minlashni 12% ga oshirish imkonini bergan.

sug'orish kanallarining ekspluatatsion rejimi va cho'kindilarning fraksion tarkibini inobatga olgan holda suv taqsimlashni samarali boshqarishning takomillashtirilgan usuli Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi «Kattagar-Bozataw» irrigatsiya tizimlari boshqarmasiga joriy etilgan. (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 03/09-3-363-son ma'lumotnomasi). Natijada magistral kanalga birlashtirilgan sug'oriladigan maydonlari uchun suv taqsimlash samaradorligi oshgan.

qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun gidromodul rayonlashtirishni hisobga olgan holda suv balansi tenglamalari asosida takomillashtirilgan suv xo'jaligi hisobi usuli Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi «Kattagar-Bozataw» irrigatsiya tizimlari boshqarmasiga joriy etilgan. (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 03/09-3-363-son ma'lumotnomasi). Natijada qishloq xo'jaligi ekinlarining suv bilan ta'minlanishi 18% oshdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari xalqaro, respublika va oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi Scopus bazasida ro'yxatga olingan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetidagi shakllantirilgan, O'zbekiston respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Sug'orish kanallarining suv taqsimlash usullari va ekspluatatsiya rejimini tadqiq qilishning muammolari va hozirgi holati**» deb nomlangan birinchi bobida sug'orish kanallarining mavjud tasniflari va farqi, Amudaryoning quyi oqimidagi sug'orish tizimlarining tavsifi, magistral kanallarda suv taqsimlashni boshqarish va ularning ish rejimini yaxshilashga bag'ishlangan tadqiqot usullari tahlil qilingan.

Sug'orish manbasidan suv keltirish kanallari tarmog'iga kelayotgan suv hajmini suv iste'molchilari o'rtasida qabul qilingan usul bo'yicha o'z vaqtida ta'minlash va taqsimlanishini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Kanallarning loyqa bosishi muammosi va unga qarshi kurash, shuningdek, loyqa oqiziqlarni sug'oriladigan maydonlargacha yetkazib berish masalasi qishloq xo'jak ekinlarining hosildorligini oshishiga katta amaliy ahamiyatga ega.

Muallaq oqiziqlar suvda turbulent rejimda oqim bo'ylab pastga harakatlanadi, bu uning tashish qobiliyatini tavsiflovchi oqimning ma'lum tezlik va oqiziqlar rejimiga mos keladi.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda ochiq kanallarda muallaq oqiziqlarning tashish qobiliyatini o'rganish bo'yicha xorijda va respublikamizda salmoqli ilmiy yutuqlarga erishilgan. Deformatsiyalanuvchi o'zanlarning gidravlik hisobi bo'yicha R.G.Kennedy, G.Lacey, V.T.Chow, W.H.Graf, H.Shen, X.Zhang, C.X.Abayayans, I.I.Levi, M.A.Velikanov, V.N.Goncharov, Ye.A.Zamarin, A.G.Xachatryan, V.S.Altunin, S.Ye.Mirxulava, Yu.A.Ibad-zade, A.M.Muxamedov, X.A.Ismagilov, X.Sh.Shapiro, B.S.Lapshenkov, E.J.Maxmudov, D.R.Bazarov, A.M.Arifjanov, S.S.Eshev, A.M.Fatxullayev, B.E.Norqulov va boshqalarning ishlari hozirgi kunda amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Tabiiy sharoitlarda va modellarda oqiziqlar harakati va o'zan jarayonlari bo'yicha tadqiqotlar bilan A.N.Gostunskiy, Ya.I.Nikitin, Ye.A.Zamarin, S.D.Djamankarayev, I.A.Buzunov, V.S.Altunin, X.A.Ismagilov, K.I.Baymanov va boshqalar shug'ullanishgan.

Tadqiqotlarga ko'ra, sug'orish tizimlarining hozirgi texnik holati shuni ko'rsatadiki, kanallarning bosh tindirgichlari hozirda loyqa cho'kindilari bilan to'lgan va ular cho'kindilar rejimiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi, shuning uchun yuqori konsentratsiyali muallaq cho'kindilar sug'orish kanallariga kelib tushadi va ushbu irrigatsiya tizimlarining butun uzunligi bo'ylab loyqa cho'kindilari bosiladi, shu jumladan ushbu kanallarning ekspluatatsiya rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Olib borilgan ilmiy tahlillar asosida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari belgilab olindi.

Dissertatsiyaning «**Anasay magistral kanali ekspluatatsiyasini yaxshilash bo'yicha dala tadqiqotlari natijalari**» deb nomlangan ikkinchi bobi tadqiqot obyektida olib borilgan izlanishlarga, tadqiqotlarni o'tkazishda qo'llanilgan uslublarga, to'plangan ma'lumotlar tahliliga, tadqiqot obyekting hozirgi holatiga va Anasay magistral kanalining gidravlik hisoblariga bag'ishlangan.

Tadqiqot olib borilayotgan obyekt Anasay magistral kanali Amudaryodan suvni Taxiatosh gidrouzeli hududidagi, o'ng qirg'oq suv taqsimlovchi – «Dvoynik» (bosh inshoot) oladi (1979-yilda foydalanishga topshirilgan). Kanalning hisobiy (loyihaviy) suv o'tkazish qobiliyati 342,0 m³/s ga teng bo'lib, 2019-2022-yillarda kanalni tozalash va toraytirish yo'li bilan rekonstruksiya qilingandan so'ng (loyihaviy) suv o'tkazish qobiliyati 220,0 m³/s ni tashkil etdi. Anasay magistral kanalining PK 119÷00 da chap qirg'oq Bo'zatov kanaliga suv olish inshooti mavjud, Bo'zatov kanalining uzunligi 46,8 km. Magistral kanalning PK 136÷00 oxirgi qismida «Bessaga» suv to'suvchi (dimlovchi) inshooti qurilgan. Anasay magistral kanaliga biriktirilgan sug'orish kanallari tizimining asosiy maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus va Bo'zatov tumanlarining 70,6 ming gektar sug'oriladigan yerlarini sug'orish va tabiiy Dautko'l ko'lini suv bilan ta'minlashdan iborat. Shundan Bo'zatov kanalining sug'orish maydoni 47,2 ming gektarni tashkil etadi.


So'nggi yillarda Taxiatosh gidrouzeli hududida Amudaryo suvining kamayishi tufayli suv oqimining haqiqiy miqdori keskin pasaydi. Bu holat Anasoy asosiy kanalining butun uzunligi bo'ylab, ya'ni PK 0+00 dan PK 136+00 gacha to'liq loyqa bosishiga olib keldi. Loyqa bosish jarayonida kanal chuqurligining kamayishi qonuniyati shakllanadi, bu esa qirg'oqlarning yemirilishi bilan kuzatiladi. Loyqa bosishi natijasida kanal o'zanining chuqurligi 1,5 metrdan 2,0 metrgacha kamaygan, kengligi esa 1,2 barobardan 1,5 barobargacha ortgan (1-rasm).



1-rasm. Anasay magistral kanalining loyqa bosishi va yuvilishi

Amudaryo daryosining Taxiatosh gidrouzeli kesimidagi sath rejimi o'zgarishlarini o'rganish, Anasay kanaliga kirish qismida va bosh suv olish inshootining yuqori byefidagi o'zgarishlarni to'liqroq tavsiflash imkonini beradi.


Dala tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Taxiatosh to'g'oni oldidagi (Anasay kanali bosh inshootining yuqori byefi) o'rtacha oylik suv sathining o'zgarish dinamikasi keng ko'lamda o'zgarib, uning tebranish amplitudasi 3,95 metr ga yetgan. Quyi byefda esa, Anasay magistral kanalining sath rejimi o'zgarishi keskin ko'tarilish va pasayishlar bilan almashinib turadi (2-rasm).



2-rasm. Taxiatosh to'g'oni oldidagi va Anasay kanali o'rtacha oylik va o'n kunlik suv sathining o'zgarish dinamikasi


Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, oylar bo'yicha suv sarfining o'zgarish amplitudasi katta diapazonda sodir bo'ladi. Magistral kanallarga kiruvchi suv sarfining bunday keskin tebranishlari butun vegetatsiya davri davomida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish va yuvish (novegetatsiya) vaqtida suv iste'moli jadvaliga rioya qilinmasligi bilan bog'liq (3-rasm).

Magistral kanalga suv olish zonasidagi o'rtacha ko'p yillik loyqalikning o'zgarishi daryoning suvlilik darajasining o'zgarishiga mos ravishda Taxiatosh gidrouzeli stvorida yaqinida suvning loyqaligi 100-1500 g/m³ oralig'ida o'zgarib turadi (3-rasm).




3-rasm. Anasay kanalining o'rtacha oylik suv sarfi va Taxiatosh gidrouzeli zonasidagi loyqalikning o'zgarish dinamikasi

Chuqurlikni o'lash natijalariga ko'ra, kanalning gidravlik rejimi oqim tezligi, chuqurligi va kengligining sezilarli darajada qayta taqsimlanishini, shuningdek, kanalning suv o'tkazish qobiliyatining pasayishini ko'rsatadi. Shuningdek Amudaryodan oqib kelayotgan katta miqdordagi muallaq oqiziqalar kanal o'zanida cho'kishi, kanalning jonli kesimi kamayishiga olib kelmoqda.



4-rasm. Anasay kanalining PK 4+00 ko'ndalang kesimi (1-stvor)



5-rasm. Anasay kanalining PK 133+50 ko'ndalang kesimi (3-stvor)

Ko'ndalang va bo'ylama kesimni aniqlash bo'yicha dala tadqiqotlari magistral kanal uzunligi bo'yicha uchta uchastkada (stvorlarda) PK-4+00, PK-118+00 va PK-133+50 da o'tkazildi.

PK 4+00 dagi 1-stvorda o'ng qirg'oqning kuchli yuvilishi kuzatilmoqda, bu «Dvoynik» bosh inshootining oltita zatvoridan birinchi va qisman ikkinchisining doimiy ravishda ochiq turishi, zatvorlar bilan manyovrlash amalga oshirilmayotgani bilan izohlanadi (rasm 4,6). PK 133+50 dagi 3-stvorda Anasay magistral kanalining oxirgi qismida, ya'ni PK 133+00 dan PK 136+00 gacha bo'lgan oraliqda, o'ng qirg'oqning kuchli loyqa bosishi yuz bermoqda. Bu holat mazkur joyda «Bessaga» to'suvchi va taqsimlovchi inshootining joylashganligi bilan bog'liq (rasm 5,7). So'nggi yillar davomida to'suvchi inshoot yopiq rejimda ishlayapdi, suv olish faqat chap qirg'oqdagi «Kerder» va «Kattag'ar» suv taqsimlash kanallarida amalga oshirilib kelinmoqda, bu esa chap qirg'oqni yuvilishiga va o'ng qirg'oqni loyqa bosishiga olib keldi.



6-rasm. Anasay kanalining bosh inshooti




7-rasm. Anasay kanalining quyi qismidagi to'suvchi inshoot

Barcha hollarda kanal o‘zanlarining ko‘ndalang kesimi, uzanning sarfi va grunt sharoitidan qat’iy nazar, poligonal yoki parabolik profilga o‘xshab ketadigan, birmuncha yassiroq shaklga ega bo‘ldi.

Shunday qilib, dala ma’lumotlari va eksperimental tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, gruntli kanallar ma’lum sharoitlarda o‘zan deformatsiyalariga duchor bo‘ladi, ular barqaror ko‘ndalang kesimlarni shakllantirish yo‘nalishida sodir bo‘ladi, bunda oqimning tezlik xususiyatlari va o‘zan shakli ma’lum bir dinamik bog‘liqlikda bo‘ladi.

Dissertatsiya ishining «**Magistral kanalning ekspluatatsiya rejimini yaxshilash bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar**» deb nomlangan uchinchi bobida kanallardagi suv oqimining modellarda eksperimental tadqiqotlari, kanaldagi harakatlanayotgan suv oqimining gidravlik parametrlarining o‘zan morfometriyasiga bog‘liqligi va ularning bosh suv taqsimlash inshooti va magistral kanalning ish rejimiga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyatlarini baholashga bag‘ishlangan.




8-rasm. Laboratoriya qurilmasi sxemasi


1-bosim baki, 2-Chipolletti suv o‘lchov moslamasi, 3-novcha, 4-zatvor, 5-zatvor (jalyuzi), 6-suv chiqarish tizimi:

Tajriba qurilmasi "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining kafedralararo o‘quv-ilmiy laboratoriyasida qurilgan bo‘lib, metall novdan iborat. Uning nishabligi $i=0,0002$, kengligi $B=38$ sm, uzunligi $L=655$ sm va gabarit o‘lchamlari 60 sm x 180 sm x 100 sm bo‘lgan rezervuarga ulangan.

Eksperimental tadqiqotlar jarayonida suv sathi dimlangan rejimida suv oqimining tashish qobiliyati o‘rganildi.




$i=0$ bo'lganda



$i=0.02$ bo'lganda

9-rasm. $i=0$ va $i=0.02$ hamda zatvor teshigining balandligi $a=8$ sm bo'lgandagi tezlik epyuralari har bir stvor uchun

Shundan so'ng, lotok qismining pastki bo'limiga o'rnatilgan zatvor turli balandliklarda ochilib, nov tubiga cho'kkan muallaq oqizqlarning tashish qobiliyati o'rganildi. Bir vaqtning o'zida har bir kesimdagi oqim tezligi mikrovertushka yordamida o'lchandi. Nov to'liq bo'shatilgandan keyin, uning tubida qolgan cho'kindilarning holati tekshirilib, ularning balandligi har bir stvorda o'lchab chiqildi (10-rasm).



10-rasm. Cho'kkan oqizqlarning lotok uzunligi bo'yicha tubida joylashuvi

Eksperimental tadqiqotlar natijalariga ko'ra magistral kanalning ishonchli ekspluatatsiyasi uchun Anasay kanalining oxirgi qismida yuvish tindirgichini qurish tavsiya etildi. Unga ko'ra tindirgichni yuvish davomiyligi sug'orish kanali va yuvilayotgan tindirgichning ishlash rejimiga qarab belgilanadi. Suv tashlash kanalining o'lchamlari, bizda oqimning yuqori tashish qobiliyatini ta'minlaydigan tuproq yotqizig'i uchun ruxsat etilgan tezliklar 0,3 m/s rivojlanishi sharoitlaridan kelib chiqib tanlangan, bunda kanalning suv bilan to'lib qolishining oldini olishga intilish lozim, buning uchun yuvish vaqti (sanasi) va kanal tubining belgisini

shunday tanlash kerakki, yuvish shlyuzi tubidan suv tashlash kanali tubigacha bo'lgan masofada kichik ko'tarilish nishabligi ta'minlanishi lozim.

Ekspperimental tadqiqotlar asosida tindirgichning yangi konstruktiv parametrlarini ishlab chiqishda sug'orish kanallarining FIK 12% ga oshganligi aniqlandi. Tadqiqotlar asosida keyingi bobda sug'orish kanallariga loyqa cho'kindilarning kirib kelishi va loyqa zarrachalarining cho'kishini kamaytirish imkonini beruvchi tindirgichning optimal konstruktiv yechimlari keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Anasay kanalining suv taqsimlash usullari va ekspluatatsiya rejimini takomillashtirish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida magistral kanaliga birlashtirilgan maydonlardagi qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun GATdan foydalanib suv xo'jaligi hisob-kitoblari keltirilgan. Shuningdek, sug'orish kanallarida loyqalikning suv oqimi bo'ylab taqsimlanishini modellashtirish hamda gidravlik yuvishga ega bo'lgan tindirgichni o'rnatish orqali magistral kanalning foydalanish ishonchliligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tahlillar uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Nukus tumani «Arbashi» OFY o'rganilayotgan uchastka sifatida tanlab olindi. Dastlab suv balansi va ekinlarning suvga bo'lgan ehtiyojini aniqlashda GATdan foydalanildi. GATdan foydalanganda fazoviy o'lchamlari 30 m bo'lgan Landsat sun'iy yo'ldosh tasvirlari olindi. Shuningdek, tadqiqot obyekti yaqinidagi meteostansiyalardan olingan sutkalik meteorologik ma'lumotlardan foydalanildi, ushbu tadqiqotda amalga oshirilgan metodologiya uch asosiy qismga ajratildi:





Yerdan foydalanishning klassifikatsiya tahlilida o'simliklar holatining normallashtirilgan nisbiy indeksi (*NDVI*) va qishloq xo'jaligi ekinlari fenologiyasidan foydalanildi, bunda o'simliklarning vegetatsiya davridagi holati o'rganilgan, o'simlik turlari sinflar bo'yicha ajratilgan, mos ravishda ularning fenologik rivojlanish tendensiyasi ko'zatiladi. Bu usul quyidagi formula yordamida amalga oshirildi va natija grafik ko'rinishida ifodalandi (11-rasm).

$$NDVI = \frac{NIR - R}{NIR + R} \quad (1)$$

bu yerda: *NIR* - infraqizil spektr, *R* - qizil spektr.

Paxta ekin maydonlarining joylashuvi aniqlangandan so'ng, keyingi tahlillar uchun ushbu maydonlarni ajratib olish mumkin. Ajratib olingan zarur zonalar jarayonni tezlashtirishni ta'minlaydi. Quyida tasniflash natijalaridan ajratib olingandan so'ng paxta egallagan maydonlar tasvirlangan (rasm 12).




11-rasm. NDVI natijalarining vaqt-yil ma'lumotlaridan foydalangan holda turli ekinlar uchun o'simliklarning holati indeksining (NDVI) o'zgarish dinamikasi

Suv balans tenglamasini tuzishda bug'lanish E_T qishloq xo'jaligi ekinlarining suvga bo'lgan real ehtiyojlarini ko'rsatadi.

$$E_T = K_C \cdot E_{T_0} \quad (2)$$

bu yerda: E_T – ekin turi evotranspiratsiyasi [mm/sut]; K_C – ekin turi koeffitsiyenti [-]; E_{T_0} – etalon evotranspiratsiyasi [mm/sut].



12-rasm. Tadqiqot hududida paxtaning joylashuvi va suv balans hisobi

Markaziy Osiyo ma'lumotlari bilan cheklangan hudud bo'lganligi sababli, bizning holatimizda E_{T_0} ni hisoblash uchun «Xargreyv Samani» usuli foydalanildi:

$$ET_0 = k_{et} RA \sqrt{(T_{max} - T_{min})} \cdot (T_{mean} + 17,8) \quad (3)$$

$$RA = 0,0023 \frac{24 \cdot 60}{\pi} G_{sc} d_r \cdot [\omega_s \sin(\varphi) \sin(\delta) + \cos(\delta) \sin(\omega_s)] \quad (4)$$

$$d_r = 1 + 0,033 \cos\left(\frac{2\pi}{365} J\right) \quad (5)$$

$$\delta = 0,409 \sin\left(\frac{2\pi}{365} J - 1,39\right)$$

bu yerda: RA - yerdan tashqaridagi nurlanish; G_{sc} - quyosh konstantasi; d_r - yerdan quyoshgacha bo'lgan teskari nisbiy masofa; δ - quyosh qiyaligi; φ - koordinata kengligi; J - yil kunlari.

Suv balansi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Delta W = I_r + P - E_T - R_n - D_p, m^3/ha \quad (6)$$

bu yerda: I_r - suv berish; P - atmosfera yog'inlari; E_T - evapotranspiratsiya; R_n - suv tashlash; D_p - infiltratsiya.

Natijalarni fazoviy ko'rinishda olish va suv balansini hisoblash uchun GAT dasturining Raster kalkulyatori vositasidan foydalandik.

Olingan suv balansi xaritasidan ko'rinishda, tadqiq etilayotgan hudud uchun suv balansining eng yuqori qiymati $+46,93 m^3/ha$ ni, eng past qiymati esa $-157,14 m^3/ha$ ni tashkil etadi. Ushbu tadqiqotda asosiy vazifa ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda suv balansini hisoblash metodikasini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi (12-rasm).

Suv xo'jaligi balansining tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud texnika, texnologiyalar va suv resurslaridan foydalanishni boshqarishni tashkil etishda, hatto suv resurslari limiti 100% ta'minlanganda ham, suv resurslari taqchilligi yiliga 134 mln. m^3/yil atrofida seziladi, ta'minlanganlik 80% bo'lsa, mamlakat iqtisodiyoti uchun suv resurslari taqchilligi yiliga 142 mln. m^3/yil ga yetadi.

Amaliyotda magistral sug'orish kanallarida suv oqimining barqaror yoki beqaror harakat parametrlarini aniqlash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Suv obyektida loyqa zarrachalarining to'liq aralashishini hisoblab, bunday zarrachalarning daryolar bo'ylab harakatini bir o'lchamli modellashtirishda o'rtacha loyqalikning ko'ndalang kesim bo'yicha taqsimlanishi bo'yicha uzoq uchastkalarga bashorat qilishda foydalanish mumkin.

Ma'lumki, bir o'lchamli modellarda loyqa va tub cho'kindilar oqimi umumiy ko'rinishda birgalikda ko'rib chiqiladi.

Bunday sharoitda:

1. o'rganilayotgan uchastkada kanal oqimining chuqurligi, kengligi va tezligi o'zgarmas bo'ladi;

2. ko'rib chiqilayotgan uchastkada boshqa oqiziqalar oqimi manbalari bo'lmasligi;

3. loyqalik rejimi statsionar ($\partial S / \partial t = 0$);

4. tezlikning ko'ndalang va vertikal komponentlari $w = u = 0$ bo'lishi kerak.

Bunda o'rtacha cho'kindilarning ko'ndalang kesim bo'yicha bo'ylama taqsimoti tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S(x) = S_0 \cdot e^k,$$

bu yerda: $k = -c/h \cdot (\omega / v_{cp})^2 \cdot x$; $c \approx 4,88n$. (7)

Qaysi modeldan foydalanishni tanlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim omil - bu cho'kindi oqiziqalar cho'kish rejimi hisoblanadi. Xususan, laminar rejim diametri $d < 0,15$ mm dan kichik bo'lgan zarrachalar uchun xos. Bu rejim

choʻkindilarning ogʻirlik kuchi va gidrodinamik qarshilik muvozanati sharoitida choʻkishga mos keladi.

$$\omega = 0,406ad^2/\mu, \quad (8)$$

bu yerda: $a = \delta/(\rho-1)$ - zarrachalarning nisbiy zichligi,

δ, ρ - zarrachalar va suvning zichligi,

μ - suvning dinamik yopishqoqlik koeffitsiyenti.

Diametri 0,15 - 1,5 mm boʻlgan zarrachalarning choʻkish jarayoniga oʻtish rejimi tavsifi. Ushbu rejimda zarrachalarning choʻkish tezligi oshishi bilan gidrodinamik qarshilikning roli ortadi:

$$\omega = 0,01a [67,7d + 0,52(\theta/26-1)], \quad (9)$$

bu yerda: θ - suvning temperaturasi.

Sferik shakldagi zarrachalarning gidravlik kattaligi:

$$\omega = 0,331(ad)0,5. \quad (10)$$

Anasay magistral kanali boshlanish hududiga tutash topografik-gidrologik sharoitlari boʻyicha mavjud maʼlumotlar tahlili, shuningdek, Amudaryo oqimi va kanalning suv olish inshootidan to «Bessaga» toʻsuvchi inshootigacha boʻlgan qismlarining gidravlik xususiyatlarini aniq tadqiq qilish, kanalning istalgan qismidagi suv sathi bilan Amudaryo havzasining kanalga tutash qismidagi suv sathi oʻrtasidagi farq hatto suv kam va toshqin davrida ham 0,8 m dan oshmasligini xulosa qilish imkonini berdi. Kanal va daryoning suv sathi koʻrsatkichlari orasidagi farq taqqoslanadigan masofada 0,15 m dan oshmaydi.

Dala tadqiqotlari natijalariga koʻra dastlab tindirgichning joylashuvi va oʻlchamlarini aniqlash ishlari olib borildi. Gidravlik yuvishga ega boʻlgan tindirgichni oʻrnini tanlashda kamerada toʻplangan choʻkindilarni yuvishga imkon beradigan suv tezligini olish uchun yuvish galereyasining boshlanishi va kanaldagi suv sathi oʻrtasidagi zaruriy farq quyidagicha yozilishi kerak:

$$D_h = \Sigma \xi \frac{V_{yuv}^2}{2g}, \quad (11)$$

bu yerda: $\Sigma \xi$ - galereyadagi gidravlik yoʻqotishlar koeffitsiyentlarining yigʻindisi;

V_{yuv} - yuvish galereyasidagi suv oqimining tezligi,

g – erkin tushish tezligi.

Choʻkindilarni yuvish uchun oqimning kerakli tezligini olish uchun suv sathlarining farqi kamida 1,83 m boʻlishi kerak va bu tezlik quyidagicha yoziladi:

$$V_{yuv} \geq \omega \frac{h_{yuv}}{d} P^{1,85} = 2,6 \text{ m/s}, \quad (12)$$

bu yerda: d – yuvishni talab qiladigan choʻkindi zarrachalarining diametri, kichik diametrli zarrachalar choʻkindilar tarkibining 75% ini tashkil etadi; ω - zarrachalarning gidravlik yirikligi; h_{yuv} - yuvishdagi chuqurlik; P - yuvuvchi oqimdagi oqiziqalar massasi boʻyicha foiz miqdori.

Tindirgichdan zarur oqim tezligi loyqa oqiziqlarni yuvish uchun Tasharna kanali tanlandi. Tasharna kanali ekspluatatsiyasi hozirda vaqtincha to'xtatilgan bo'lib hisobiy suv o'tkazish qobiliyati 180,0 m³/s tashkil qiladi. Kanal rostlovchi inshooti 8x2,5 m o'lchamdagi beshta zatvorga ega.

Anasay magistral kanalining ekspluatatsion rejimini inobatga olib, muallaq oqiziqlarni tindirgichga cho'ktirish orqali Kerder va Kattag'ar sug'orish kanallariga kafolatli suv yetkazib berish usuli takomillashtirildi, buning natijasida birlashtirilgan maydonlardagi qishloq xo'jaligi ekinlariga zarur bo'lgan suvni taqsimlash imkoniyati yaratildi.



13-rasm. Anasay kanalining oxiridagi tindirgich joylashuvi

Suv resurslarining ortib borayotgan taqchilligining mavjudligi havzada oqimni samarali tartibga solish va bir tekis taqsimlash hamda bir vaqtning o'zida suvga bo'lgan talabni, asosan sug'orma dehqonchilikda optimallashtirish, sug'oriladigan yerlarni sug'orishning yangi texnologiyalarini joriy etish, suv iste'moli me'yorlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning integratsiyalashgan yondashuvini qo'llashni talab qiladi. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish havzada suvga bo'lgan talabni maksimal 28-35% ga kamaytirishi mumkin.

XULOSALAR

«Sug'orish kanallarining ekspluatatsion rejimini inobatga olgan holda suv taqsimlashni boshqarish usullarini takomillashtirish (Anasay magistral kanali misolida)» mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Sug'orish tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari va hozirgi texnik holati o'rganib chiqildi, tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kanallarning bosh tindirgichlari bugungi kunda loyqa bilan to'lib qolgan va ular cho'kindilar rejimiga deyarli ta'sir ko'rsatmayapti. Shu sababli, yuqori konsentratsiyali loyqa cho'kindilar sug'orish kanallariga kirib kelmoqda va bu sug'orish tizimlarining butun uzunligi bo'ylab cho'kindilarning cho'kishi kuzatilmoqda.

2. Anasay magistral kanali parametrlari bo'yicha o'tkazilgan dala tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, kanalning yuqori qismida o'zanning loyqa bosishi kuzatiladi, bu holat Taxiatosh gidrouzeli yuqori byefi va tindirgichlarning loyqa bosishi, kanal o'zaniga yirik hajmdagi cho'kindilarning kirib kelishi bilan bog'liq.

3. Bosh suv taqsimlash zatvorlarini manyovrlash natijasida sug'orish kanalining ishonchli ish rejimini ta'minlovchi gidravlik ko'rsatkichlar olindi. Suv taqsimlash natijasida sug'orish kanalining FIKni 7-12% ga oshirish imkoniyati yaratildi.

4. Anasay magistral kanalining butun uzunligi bo'ylab cho'kindilar cho'kish dinamikasini aniqlash usullari gidrodinamik tenglamalar asosida ishlab chiqildi. Natijada suv iste'molchilariga kafolatlangan suv yetkazib berishni 12 % oshirish imkoniyati yaratildi.

5. Magistral kanalda suv iste'molining o'zgaruvchanligini inobatga olgan holda sug'oriladigan yerlar va sug'orish tarmoqlaridan suv yo'qotilishini aniqlash usuli takomillashtirildi.

6. Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun suv xo'jaligi hisoblari geoaxborot texnologiyalari asosida ishlab chiqildi.

7. Suv balansini hisoblash mavjud texnika, texnologiyalar va suv resurslaridan foydalanishni boshqarishni tashkil etishda suv resurslari limiti 100% ta'minlanganda ham suv resurslari taqchilligi 134 mln. m³/yil oralig'ida sezilishini, ta'minlanganlik 80% bo'lsa, mamlakat iqtisodiyoti uchun suv resurslari taqchilligi 142 mln. m³/yilga yetishini asoslaydi.

8. Suv balansi tenglamalari asosida sug'oriladigan maydonlardagi ekin turlari va suv oqimidagi cho'kindilarning fraksion tarkibini hisobga olgan holda dinamik, barqaror va iqtisodiy samarali tindirgichning gidravlik parametrlarini hisoblash usuli takomillashtirildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.26/26.01.2023.Т.109.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИИ**

САПАРОВ АМАНБАЙ БЕРДИБАЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ УПРАВЛЕНИЯ
ВОДОРАСПРЕДЕЛЕНИЯ С УЧЁТОМ ЭКСПЛУАТАЦИОННЫХ
РЕЖИМОВ ОРОСИТЕЛЬНЫХ КАНАЛОВ
(На примере магистрального канала Анасай)**

05.09.07 – Гидравлика и инженерная гидрология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2025.2.PhD/T4992.

Диссертация выполнена в Каракалпакском институте сельского хозяйства и агротехнологии. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.samdaqu.edu.uz и Информационно – образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научные руководитель:

Джуманазарова Алтынгул Тенгеловна
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Эшев Собир Самадович
доктор технических наук, профессор

Янгиев Асрор Абдихамидович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский архитектурно-строительный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года. в ____ часов на заседании Научного совета PhD.26/26.01.2023.T.109.03 при Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете имени Мирзо Улугбека (Адрес: 140147, г. Самарканд, ул. Лолазор, дом 70. Тел.: (+99866) 237-15-93, факс: (+99866) 237-26-30, e-mail: samdaqu@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете (регистрационный номер №___). (Адрес: 140147, г. Самарканд, ул. Лолазор, дом 70. Тел.: (+99866) 237-15-93, факс: (+99866) 237-26-30, e-mail: samdaqu@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 г.
(реестр протокола рассылки №___ от «___» _____ 2025 г.)

Д.Р. Базаров

Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней
д.т.н., профессор

Б.М. Норкулов

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
PhD., доцент

К.Мамасолиев

Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире одним из ведущих мест занимают вопросы совершенствования водораспределения и режима эксплуатации магистральных каналов для улучшения мелиоративного состояния орошаемых земель, повышения урожайности сельскохозяйственных культур, строительства и реконструкции устойчивых и экономически эффективных эксплуатируемых ирригационных каналов. В мировом масштабе для обеспечения орошаемого земледелия созданы гидротехнические системы: магистральные, межхозяйственные каналы, особое внимание уделяется ведению целенаправленных научных исследований, направленных на разработку и совершенствование методов управления водораспределением и эксплуатационной надежности магистральных каналов и оросительных систем.

В целях принятия неотложных мер по строительству и реконструкции объектов водообеспечения, широкого внедрения водосберегающих технологий орошения, улучшения мелиоративного состояния земель, налаживания автоматизированного контроля за использованием водных ресурсов и электрической энергии, уменьшения потерь воды и повышения коэффициента полезного действия оросительных каналов за счет внедрения в производство достижений науки, а также надежного обеспечения водой орошаемых земельных площадей в Республике Узбекистан ведутся широкомасштабные мероприятия.

В настоящее время в республике актуальными являются проблемы обеспечения пользователей необходимыми водными ресурсами. Разрабатываются меры по оптимальному управлению обеспечением водными ресурсами магистральных и межхозяйственных каналов, обеспечения доступа к воде населения на основе разработанных критериев качества. В Стратегии по развитию сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы определены задачи по совершенствованию системы управления водными ресурсами, поскольку «...согласно прогнозу Института мировых ресурсов, к 2040 году Узбекистан станет одной из 33 стран с наибольшим дефицитом воды...»²¹. При реализации данных задач важным представляется совершенствование алгоритмов вычисления для решения задач оптимального управления распределением воды в магистральных каналах.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит осуществлению задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 года №УП-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 9 октября 2019 года №ПП-4486 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления водными ресурсами», от 5 декабря 2020 года №ПП-4912 «О неотложных мерах по эффективному использованию водных ресурсов и

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы»

улучшению мелиоративного состояния земель в Республике Каракалпакстан», а также другими нормативно-правовыми документами, касающимися данной сферы.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

